



KSS - Ko'p so'raladigan savollar



Aviabilet narxi ko'rsatilgan parvozimni tasdiqlovchi ma'lumotnomani qanday qilib olishim mumkin?

Siz aviakompaniya direksiyasiga, info@uzairways.com electron manzil orqali rasmiy so'rov yuborsangiz, sizga barcha kerakli ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjat taqdim etiladi.

Pasportimning amal qilish muddati tez orada tugayotgan bo'lsa, men sayohat qilishim mumkinmi?

Ko'pgina mamlakatlarda pasport amal qilish muddatiga maxsus talablar mavjud. Ko'pincha pasportingiz amal qilish muddati sayohatingiz davomiyligi muddatidan ancha uzun bo'ladi. Bu talablar siz fuqarosi bo'lgan mamlakat va boshqa omillarga ko'ra farq qilishi mumkin. Iltimos, sayohatingiz davomida boradigan barcha mamlakatlar uchun pasport va viza talablari bilan tanishib chiqing va pasportingiz amal qilish muddati butun sayohatingiz uchun yaroqliligiga ishonch hosil qiling.

Sayohat qilishim uchun tibbiy sug'urta kerakmi?

Biz xorijga sayohat qilishingiz uchun tegishli sayohat sug'urtalaridan foydalanishingizni tavsiya qilamiz. Muayyan joylarga sayohat qilishda yoki tranzit bekatlarida vaksinasiya talab etilishi yoki tavsiya qilinishi mumkin. Siz vaksinasiya bo'yicha bizning IATA talablarini qidirish tizimimizdan foydalanishingiz yoki o'z shifokoringizga murojaat qilishingiz mumkin.

Chipta sotib olayotganda undagi soatlar mahalliy vaqt bilan ko'rsatiladimi yoki Moskva vaqti bilanmi?

Saytda doimo samolyotingiz jo'nab ketadigan shahar yoki qo'nadigan shahardagi mahalliy vaqt ko'rsatiladi. Masalan, Toshkentdan parvoz qilishingiz 14:05 bo'lsa, bu Toshkent vaqti bilan. Parijga qo'nish 15:20 ga belgilangan bo'lsa – bu Parij shahrining mahalliy vaqtidir

Men uchmoqchi bo'lgan mamlakatimning vizasiga ega bo'lmay turib, shu xalqaro reysga chipta sotib olishim mumkinmi?

Yo'q, siz xalqaro reysga chipta sotib ololmaysiz. Vizangizning o'z vaqtida rasmiylashtirilishi va aviachipta sotib olayotganingizda uning borligiga ishonch hosil qiling.

Chiptani sotib olmay turib qancha muddatga uni bron qilishim mumkin?

Bu siz tanlagan tarifga, shuningdek qancha muddat avval chipta bron qilinayotganiga bog'liq. Bron amal qilinishining aniq vaqti va uning davomiyligi haqidagi ma'lumotni chipta sotish shaxobchalaridan olishingiz mumkin.

Agar menda elektron chipta bo'lsa, aeroportda ro'yxatdan o'tish uchun nima qilishim zarur?

Unday holda yo'lovchida uning shaxsini tasdiqlovchi hujjat, ya'ni, katta yoshdagilar uchun – pasport, bolalar uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma bo'lishi shart. Zarurat tug'ilganda xorijiy pasport va viza ham kerak bo'ladi. Yo'nalish kvitansiyasini o'zingiz bilan olishni tavsiya qilamiz(garchi bu reysga ro'yxatdan o'tish uchun zaruriy shart bo'lmasa-da), chunki unda sizning parvozlaringiz haqida to'liq ma'lumot bo'ladi.

Bron qilish ogohlantirishsiz bekor qilinishi mumkinmi?

Ha, mumkin. Agar siz bron qilgan muddat o'tib ketgan, lekin to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, bron bekor qilinadi. Chiptani bron qilishingiz mumkin bo'lgan vaqt, siz tanlagan tarif va parvozgacha qolgan kunlar 3 kundan ko'p yoki ozligiga ko'ra, 3 soatdan 24 soatgacha bo'lishi mumkin.

«O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasining parvozlar yo'nalishi va jadvalini qanday bilish mumkin?

«O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasining parvozlar yo'nalishi va jadvallari haqida ma'lumot olish uchun quyidagi **Parvozlar xaritasi** va **Jadval** sahifalariga o'ting.

Reyslar, tariflar va /yoki bron qilish shartlari haqidagi ma'lumotni qanday va qayerdan olish mumkin

Bo'sh o'rinlar, jadvallar va tariflar to'g'risidagi ma'lumotni siz saytimizning "Interaktiv xizmatlar" sahifasidan yoki mamlakatingizdagi aviakompaniyamizning vakolatxonasi bilan bog'langan holda, shuningdek «O'zbekiston havo yo'llari» aviachiptalari savdosi bilan shug'ullanuvchi eng yaqin shaxobchadan bilib olishingiz mumkin. Aviachiptalari savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxobchalar/hududiy vakolatxonalar haqidagi ma'lumot bilan siz "Vakolatxonalar" sahifasida tanishishingiz mumkin.

Homilador ayollar tashuvi qanday amalga oshiriladi?

Homilador ayollar quyidagi shartlarda tashuvga qabul qilinadi:

- agar homiladorlik muddati 35 haftadan oshmagan bo'lsa, shifokor tomonidan tashuv sanasidan ko'pi bilan 7 kun oldin imzolangan tibbiy sertifikat mavjud bo'lganda;
- agar egizaklar tug'ilishi mo'ljal qilinayotgan bo'lsa, tashuv sanasida homiladorlik muddati 32 haftadan oshmasligi kerak;
- agar homiladorlik muddati 35 haftadan oshsa, faqatgina aviakompaniya tibbiy xizmati roziligi bilan va shifokor yoki tibbiyot xodimi kuzatuv ostida tashuvga ruxsat etiladi.

"Aeroport yig'implari" nima?

Ba'zi aeroportlar har bir jo'nab ketayotgan yo'lovchidan "jo'nab ketish solig'i" oladi. «Uzbekistan havo yo'llari» aviakompaniyasining chiptalarini bron qilishda chipta bahosi aeroport yig'implarini ham o'z ichiga oladi.

Men yashab turgan mamlakatda «Uzbekistan havo yo'llari» aviakompaniyasining vakolatxonalari manzili va telefonlarini qayerdan olish mumkin?

«Uzbekistan havo yo'llari» aviakompaniyasi vakolatxonalari va uning aviachiptalari savdosi bilan shug'ullanuvchi xalqaro shaxobchalar haqidagi ma'lumot bilan siz "Vakolatxonalar" sahifasidan bilib olishingiz mumkin.

Safar uchun viza zarur ekanligini qanday bilish mumkin?

Ba'zi mamlakatlar sayohatgacha olinishi kerak bo'lgan kirish yoki tranzit vizalarini talab qiladi. Siz borishni rejalashtirgan yoki tranzit parvozlaringizda boradigan yoki ma'lum muddat davomida qoladigan mamlakatingiz elchixonasining viza/konsullik bo'limi bilan bog'lanishingizni tavsiya qilamiz. Ko'plab mamlakatlar o'zlarining rasmiy veb saytlarida viza tartibi/viza olish haqidagi ma'lumotlarni joylaydilar. Shuningdek zaruriy ma'lumotni aviachipta bron qilishda agentingizdan ham bilib olishingiz mumkin. Zaruriy viza va belgilarning borligi borasidagi mas'uliyat to'liq yo'lovchilarda bo'ladi.

Mening pasportim amal qilish muddati yaqinda tugaydi. Mening xorijga safarim imkoniyati qanday?

Butun sayohatingiz davomida pasportingiz amal qilish muddati tugamagan bo'lishi juda muhimdir. Ko'pgina mamlakatlarda pasportning muayyan muddatda (odatda 6 oy) amal qilinishi zarurligi haqida talablar mavjud. Iltimos, sayohatingiz oldidan bormoqchi bo'lgan mamlakatingiz elchixonasidan pasportlar uchun qo'yiladigan talablar bilan tanishib chiqing.

Ma'lum turdagi kasalliklarga qarshi vaktsinasiyadan o'tish yoki muayyan dori vositasini ichish zarurmi?

Ba'zi hollarda, yo'nalish yoki bormoqchi bo'lgan mamlakatingizga qarab avvaldan vaktsinasiya qilish zarurati tug'ilishi mumkin. Bunga biror shubha bo'lsa, biz shifokoringiz bilan maslahatlashishingizni tavsiya qilamiz.

Xizmat safari bo'yicha qanday hisobot berish mumkin?

Aviakompaniya doim chiqish taloni va aviareys uchun to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlarni (moliyaviy cheklar va to'lov kartasidagi o'tkazmalar haqidagi ma'lumotlarni) saqlab qo'yishni qat'iy tavsiya qiladi. Chunki mazkur hujjatlarning bo'lishi (xorijga xizmat safarlar qilinadigan bo'lsa, pasportda davlat chegarasini kesib o'tganlik to'g'risida belgi) va ularga elektron aviachipta nusxasini ilova qilishingiz safar xarajatlarini tasdiqlash uchun yetarlidir.

«O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasining reyslaridagi parvoznig tasdig'ini rasmiy tarzda qanday olish mumkin?

Quyidagi tartibga ko'ra aviakompaniya yo'lovchiga chindan ham xizmat ko'rsatilganini tasdiqlashi va bu haqda o'zining firma blankasida ma'lumot berishi mumkin:

Yo'lovchi ariza yozishi zarur (unda yo'lovchining to'liq ism-sharifi, pasport ma'lumotlari, aviachipta raqami, yo'nalish, parvoz sanasi, so'rovning sababi ko'rsatilishi zarur).

Hujjat 5 ish kunida tayyorlanadi va u bepul. Yo'lovchi bunday tartibni «O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasining shaxsiy sotish shaxobchalarida amalga oshirishi mumkin.

Aviakompaniya reyslari jadvalini qayerdan olishim mumkin?

Aviakompaniyaning barcha reyslarining jadvalini siz bosh menyuning "Jadval" sahifasidan bilishingiz mumkin.

2 yoshgacha bo'lgan bolaga chipta lozimmi?

2 yoshgacha bo'lgan chaqaloqlar parvoz qilishlarida u bilan birga uchadigan shaxsning chiptasi mavjudligi va uning bronni haqidagi so'rovi talab qilinadi.

Qo'lda olib yuriladigan yuk bepul yuk meyo'riga kiradimi?

Bepul tashiladigan yuk meyo'riga quyidagilar kiritilmaydi:

- ayollar sumkachi, erkaklar portfeli yoki qog'oz solinadigan papka;
- fotoapparat, videokamera;
- parvoz vaqtida o'qiladigan bosma nashrlar;
- og'irligi 2 kg dan oshmaydigan ixcham komp'yuter;
- chaqaloq uchun oziq-ovqat va bolalar uchun yo'l beshigi;
- soyabon yoki xassa;
- pal'to, plash yoki boshqa ust kiyim;
- qalin jun ro'mol;
- qo'ltiqtayoq (agar u parvoz davomida yo'lovchiga kerak bo'lsa);
- og'irligi 5 kg dan va o'lchami eni, bo'yi, balandligini jamlaganda 115 sm dan oshmagan,

Duty free do'konidan sotib olingan bitta sumkadagi xaridlar.

Elektron aviachipta nima?

Elektron chipta yoki e-ticket – bu qog'oz ko'rinishdagi chiptaning zamonaviy muqobilidir. Hozirgi kunda jahonning ko'plab mamlakatlarida yo'lovchilarni tashishda elektron chiptadan keng qo'llanilib, qog'oz ko'rinishidagi chiptalarni muomaladn chiqarib yubormoqda.

Elektron aviachipta nimasi bilan qulay?

- Elektron chiptani yoddan chiqarmaysiz va uni yo'qotib qo'ymaysiz: u «O'zbekiston havo yo'llari» MAK ning ma'lumotlar bazasida saqlanadi;
- Chiptani sotib olishingiz bilan, sayohatingiz tafsilotlarini qiziqqan kishilarga; qarindoshlarga, do'stlarga yoki hamkorlarga yo'llashingiz mumkin.

Ro'yxatga olish vaqtida men qanday qilib mahsus ovqatga buyurtma berishim mumkin?

Maxsus ovqatlar alohida tayyorlanadi, shu sabab ularga buyurtmani chipta bron qilish va uni olishda berish kerak bo'ladi. Afsuski, ro'yxatga olish vaqtida buning imkoni yo'q.

Samolyot bortiga o'zim bilan nima olishim mumkin?

Havo kemasi saloniga qo'lda olib kiriladigan yuk uchun meyo'r:

- Birinchi va biznes klasslar uchun – umumiy og'irligi 10 kg gacha bo'lgan qo'lda olib yuriladigan yuk (eni, bo'yi, balandligini jamlaganda 115 sm dan oshmagan);
- Ekonom (Tejamli) klass uchun – umumiy og'irligi 8 kg gacha bo'lgan qo'lda olib yuriladigan yuk (eni, bo'yi, balandligini jamlaganda 115 sm dan oshmagan).

Yo'lovchining o'zi kabinada olib yuriladigan qo'lda olib yuriladigan yuk uchun javobgar hisoblanadi.

Men uchadigan reys vaqtidan qancha oldin aeroportga kelishim zarur?

Agar siz BC yuk bo'limida ro'yxatga olinishi zarur bo'lgan yuk bilan sayohat qilayotgan bo'lsangiz, ro'yxatga olish stoli oldida reys vaqtidan kamida 40 daqiqa avval bo'lishingiz zarur.

O'zim bilan qanday hujjatlarni olishim lozim

Yo'l hujjatlari. Hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish – muvaffaqiyat garovi.

Yo'lovchi safar amalga oshirilayotgan (yoki tranzit) mamlakat hududidagi barcha hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirilishi, qonunlar, mamlakatning davlat organlari qarorlari, qoidalari va qonunosti hujjatlariga rioya qilish mas'uliyatini oladi. Safarga o'tlanar ekansiz, o'zingiz bilan pasport va viza (zarurati bo'lsa), qog'oz yoki elektron aviachipta (yo'nalish kvitansiyasi) va shu mamlakatga kirish uchun zaruriy boshqa hujjatlarni olishni unutmang.

Aviakompaniya tegishli tarzda hujjatlarni rasmiylashtirmagan yo'lovchining uchishiga yo'l qo'ymaslik huquqiga ega. Agar siz chiptani topshirish va uning uchun to'langan pulni qaytarib olmoqchi bo'lsangiz, buni chiptani sotib olgan joydan amalga oshirishingiz mumkin.

Men uchadigan reysni kechiktirilayotgani yoki kechiktirilmayotganini qanday bilishim mumkin ?

Siz aviakompaniya saytidagi «Onlayn tablo» bo'limiga murojaat qilgan holda reysingizning terminalini aniqlab olishingiz mumkin. Shuningdek, aeroportga kelib, zaruriy ma'lumotlarni uchish zalidagi tablodan ham bilishingiz mumkin.

Qanday turdagi samolyotda uchamiz?

Jadvalda ko'rsatilgan va chipta sotib olayotganigizda sizga, balki, malum qilingan samolyot turi texnik yoki amaliy sabablarga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Reysingiz uchun aynan qanday havo kemasi tayyorlanayotganini bilish uchun reysingizga yo'lovchilar va yuklarni ro'yxatga olayotgan aviakompaniya xodimiga murojaat qilishingiz zarur bo'ladi.

Agar aeroportda yordam yoki maslahat kerak bo'lib qolsa, qayerga murojaat qilaman?

Aeroportda «O'zbekiston havo yullari» MAKning har qanday xodimiga yordam so'rab murojaat qilishingiz mumkin. Siz murojaat qilgan xodim sizga kerakli ma'lumotni berolmagan taqdirda ham, uni topishga yordam beradi.

Men ro'yxatdan o'tdim, biroq boshqa joyga o'tirmoqchiman. Buni qanday amalga oshira olaman?

Siz aeroportdagi reysingizni ro'yxatga olayotgan stolga bu haqda murojaat qilishingiz mumkin va shu paytgacha band qilinmagan boshqa har qanday joyni sizga taklif qilinadi.

18679

[RSS](#)[Yuqoriga](#)[PDF Yuklash Print](#)

Источник URL (изменение 16/07/2019 - 13:51): <https://www.uzairways.com/uz/flights/kss-kop-soraladigan-savollar>